

**IV-SHO'BA**

**TA'LIM OLUVCHILARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY-HISSIY TA'LIMNING O'RNI.**

**TA'LIMDA IJTIMOY-HISSIY INTELEKTNING TUTGAN O'RNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19189641>

**Soliyev Oybek Farhodjonovich**

*p.f.b.f.d (PhD) dosent Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi*

*Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrası mudiri*

**Annotatsiya**

*Maqolada o'quvchilarning o'zini anglash, his-tuyg'ularini boshqarish, empatiya, samarali muloqot va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishi asoslab beriladi. Shuningdek, ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish, nizolarni kamaytirish va o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish mumkinligi ta'kidlanadi. Ta'lim tizimida ijtimoiy-hissiy intellektni rivojlantirish o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki ruhiy barqaror, ijtimoiy faol va hayotga tayyor shaxs sifatida shakllantirishning muhim omili ekanligi qayd etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *hissiyot, Ijtimoiy-hissiy intellekt, hissiyot turlari, zamonaviy maktab ta'limi, psixokorreksiya.*

**РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАНИИ**

**Аннотация**

*В статье утверждается, что развитие у учащихся самосознания, навыков управления эмоциями, эмпатии, эффективной коммуникации и принятия ответственных решений может повысить эффективность образования. Также подчеркивается, что развитие социально-эмоциональных навыков может создать позитивную психологическую среду в классе, снизить конфликтность и повысить мотивацию учащихся. Отмечается, что развитие социально-эмоционального интеллекта в системе образования является важным фактором формирования у учащихся не только знаний, но и психической устойчивости, социальной активности и готовности к жизни.*

**Ключевые слова:** *эмоции, социально-эмоциональный интеллект, типы эмоций, современное школьное образование, психокоррекция.*

**THE ROLE OF SOCIAL-EMOTIONAL INTELLIGENCE IN EDUCATION**

**Abstract**

*The article argues that developing students' self-awareness, emotional management, empathy, effective communication, and responsible decision-making skills increases educational effectiveness. It also emphasizes that developing socio-emotional skills can create a positive psychological environment in the classroom, reduce conflicts, and increase student motivation. It is noted that*

## **Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish**

---

*developing socio-emotional intelligence in the education system is an important factor in shaping students not only as knowledgeable, but also as mentally stable, socially active, and life-ready individuals.*

**Keywords:** *emotions, Social-emotional intelligence, types of emotions, modern school education, psychocorrection.*

Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ham maqsad qiladi. So'nggi yillarda ta'lim jarayonida ijtimoiy-hissiy intellekt (Social-Emotional Learning – SEL) tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuv o'quvchilarning nafaqat akademik muvaffaqiyatini, balki ularning ruhiy barqarorligi, muloqot madaniyati va jamiyatga moslashuvchanligini ham ta'minlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy-hissiy intellekt — bu insonning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalarning hislarini tushunish va sog'lom ijtimoiy munosabatlar o'rnatish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha ilmiy jihatdan ilk bor amerikalik psixologlar — Peter Salovey va John D. Mayer tomonidan asoslab berilgan. Keyinchalik Daniel Goleman o'zining Emotional Intelligence asari orqali bu g'oyani ommalashtirdi.

Ijtimoiy-hissiy intellekt quyidagi asosiy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

O'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy ong, munosabatlarni boshqarish, mas'uliyatli qaror qabul qilish, ta'lim jarayonida ijtimoiy-hissiy intellektning o'rni

O'quvchilarning akademik muvaffaqiyatini oshiradi, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z his-tuyg'ularini boshqara oladigan o'quvchilar dars jarayonida diqqatni yaxshiroq jamlaydi, stressni samarali yengadi va natijada yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishadi. Ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar rivojlangan o'quvchi muammoli vaziyatlarda konstruktiv fikrlay oladi. Maktabda sog'lom psixologik muhit shakllanishi ta'lim samaradorligining muhim omilidir. O'quvchilar o'zaro hurmat, hamkorlik va empatiya asosida muloqot qilganda sinfdan nizolar kamayadi. Bu esa o'qituvchining ham samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi.

Shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi

Ijtimoiy-hissiy intellekt shaxsning kelajak hayotida muvaffaqiyatli bo'lishida katta rol o'ynaydi. Ish joyida jamoa bilan ishlash, muloqot qilish va nizolarni hal etish ko'nikmalari aynan shu qobiliyatga bog'liq. Shu bois ko'plab xalqaro tashkilotlar, jumladan UNESCO ham ta'limda ijtimoiy-hissiy o'qitishni qo'llab-quvvatlamog'da. Bundan tashqari, ota-onalar bilan hamkorlik qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-hissiy intellekt zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan. Hissiy intellekt tuyg'ulari o'zini tushunish va boshqa odamlar bilan sog'lom munosabatlar o'rnatishga yordam beradigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Ijtimoiy-hissiy intellekt zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan. Hissiy intellekt tuyg'ulari o'zini tushunish va boshqa odamlar bilan sog'lom munosabatlar o'rnatishga yordam beradigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Ko'p narsalarni bajaradigan zamonaviy odamning hayoti ijtimoiy rollar, uning atrofidagi ko'plab odamlar bilan doimiy kommunikatsiya jarayoni bilan tavsiflanadi. Shuning uchun aloqa jarayonining samaradorligi masalasi ijtimoiy fanlarda doimo dolzarb bo'lib kelgan. Psixologiyada hissiy intellekt (emotional intelligence, EI) tushunchasi keng o'rganilgan. Fanga dastlab 1920 yilda professor E. Torndike birinchi marta ijtimoiy intellekt tushunchasini kiritdi va George Washington "Social Intelligence" testini ishlab chiqildi. Psixologiyada birinchi bo'lib 1964 yilda Michael Beldoch, 1975 yilda Claude Steiner ishlarida emotional intelligence tushunchasi ishlatildi. So'ng Govardom Gardner tomonidan modeli ishlab chiqildi va olimlar hissiy intellekt holatini batafsil o'rganishdi. Psixologiyada hissiy intellekt (emotional intelligence, EI) tushunchasi keng o'rganilgan. Fanga dastlab 1920 yilda professor

E.Torndike birinchi marta ijtimoiy intellekt tushunchasini kiritdi va George Washington "Social Intelligence" testini ishlab chiqildi. Psixologiyada birinchi bo'lib 1964 yilda Michael Beldoch, 1975 yilda Claude Steiner ishlarida emotional intelligence tushunchasi ishlatildi. So'ng Govardom Gardner tomonidan modeli ishlab chiqildi va olimlar hissiy intellekt holatini batafsil o'rganishdi. Ijtimoiy-hissiy intellekt tushunchasining turli xil talqinlari mavjud, ba'zan ijtimoiy-hissiy intellekt operatsiyalari hayot sharoitlari, shaxsiy ko'nikmalar bilan taqqoslanadi vaziyatlarni, kognitiv uslubni, rezolyutsiya rejalari, muammoli vaziyatni o'rganish uchun olib borilgan ishlar deb tushungan.

Zamonaviy ta'limda ijtimoiy-hissiy intellektning ahamiyati tobora ortib borayotgani aniq. Ijtimoiy-hissiy intellekt odamlarning boshqalar bilan muomala qilish, ijtimoiy munosabatlarda samarali ishlash va emosiyalarning tushunishi va boshqarilishida muhim rol o'ynaydi. Bu ta'limdagi yangi paradigmalarda va talablar bilan bog'liq. Zamonaviy ta'lim jarayonida ijtimoiy va emosional ko'nikmalarni har bir mashg'ulotlarda rivojlantirib borishimiz zarur. Zamonaviy ta'limda faqat texnik bilimlar emas, balki odamlar bilan muomala qilish, jamoada ishlash, ijtimoiy munosabatlar va emosional holatlarni tushunish kabi ko'nikmalar ham muhim sanaladi. Maktab ta'limida ijtimoiy-hissiy intellekt o'quvchilarga jamiyatdagi umumiy ijtimoiy-siyosiy emosiyalarni tushunish va ularga to'g'ri munosabat bildirishni o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Dastlab ta'limda o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni ham rivojlanib borishiga ahamiyat qaratimiz lozim. O'quvchilarning ijtimoiy-hissiy qobiliyatlari, masalan, empatiya, muammolarni hal qilish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish kabi ko'nikmalar ijtimoiy muvaffaqiyat uchun zarur. Bu ko'nikmalar zamonaviy ta'limda tolerantlik, ishonch, hamkorlik va yordam berishga qaratilgan bilimlarni olish uchun ham muhimdir. Ijtimoiy pyedagogikada ijtimoiy-hissiy tarbiya masalalariga oid ilmiy tadqiqot ishlarni shu kungacha ko'plab o'tkazib kelishgan. Pedagoglar uchun ijtimoiy-hissiy intellektni tarbiyalash va o'quvchilarga emosional salomatlik va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish muhim vazifa sifatida yuklangan. Pedagoglar o'z bilim va tajribalari bilan o'quvchilar orasida ijobiy ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishga intilishlari kerak bo'ladi. Maktab ta'limida psixologik va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish masalalari ahamiyatlidir. Maktabdagi ijtimoiy muhitning o'z talablarini o'quvchilarga to'g'ri tushunchalar bilan berilsa, o'quvchilar barcha o'quv talabalari, o'quv majburiyatlarida ijtimoiy-hissiy intellekt o'quvchilarning ta'limga bo'lgan munosabatini yaxshilashga yordam beradi, chunki ularning o'zaro munosabatlari, xususan, emosional intellektlari va ijtimoiy qobiliyatlari, o'qish va o'rganish jarayonini samarali qilishda muhimdir. O'quvchi shaxsi kamolatga erishishida ijtimoiy integratsiya ham o'z o'rnida ahamiyatli. Zamonaviy ta'lim, yoshlarning ijtimoiy hayotga integratsiyasi va ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga ham katta ahamiyat beradi. Ijtimoiy-hissiy intellekt bu jarayonda o'quvchilarga hayotga va jamiyatga foydali shaxslar bo'lishga yordam beradi. Ijtimoiy-hissiy intellekt zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanib, o'quvchi shaxsning ijtimoiylashuviga ham ta'sirni ko'rsatadi. U o'quvchilarning ijtimoiy faoliyati, psixologiyasi va shaxs sifatida kamol topishlarida muhim omildir. Ijtimoiy-emosional rivojlanish-bu insonga boshqalar bilan muloqot qilish, his-tuyg'ularini tushunish va tartibga solish, boshqa odamlar bilan sog'lom munosabatlar o'rnatishga yordam beradigan ko'nikmalarni shakllantirish va o'zlashtirish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon erta yoshdan boshlanadi va hayot davomida davom etadi. Maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirishning dolzarbligi so'nggi paytlarda o'qituvchilar va psixologlarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Bu hayot sur'atlarining tezlashishi, zamonaviy sharoitda bolaning ijtimoiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, unda ko'pincha odamlar o'rtasidagi munosabatlarda tarbiya, Mehribonlik, xayrixohlik, nutq madaniyati etishmasligi kuzatiladi, bu esa odamdan jamiyatga ko'proq moslashishni talab qiladi.

Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilargan ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. O'zimizga va boshqa hamma narsa va hodisalarga hisiyotlarimiz bilan ham javob beramiz. Bizga ayrim narsalar yoqsa, ya'ni kayfiyatimizni ko'tariladi, boshqa bir narsalar yoqmasa kayfiyatimiz buzilib, dilimizni xira qiladi. Masalan: Ba'zi bir ovqatlarni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo yoqtirmaydi, yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlarni esa yoqtirmaymiz. Hissiyot – shaxsda barqaror va uzoq davom etadigan murakkab va doimiy hissiy kechinmalari. Hissiy rivojlanish: his-tuyg'ularingizni tanib olish, ifoda yetish va boshqarish, shuningdek boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati. Hissiyotlar va hislar insonning o'zini chuqurroq bilishiga ko'maklashadi, insonlarning kechinmalarini, ularning o'zi bilan atrofdagilarning munosabatlarini aniqroq anglashga yordam beradi. Kechinmalar tufayli inson o'z imkoniyatlarini, qobiliyatlarini, qadrini va kamchiliklarini biladi. Insonning yangi sharoitdagi kechinmalari insonning o'zida, odamlarda, tevarak muhitdagi predmet va hodisalarda nimadir yangilikni ochib beradi. Hissiyot kechinmalari turli holatlarda turlicha tezlik bilan paydo bo'ladi. Ba'zan hissiyot to'satdan, darhol paydo bo'ladi. Masalan, kishi birdan xursand bo'lib ketadi, darhol g'azabga keladi, achchiqlanadi va hokoza. Hissiyotlarni kuchi avvalo yoqimli va yoqimsiz tuyg'ularning naqadar kuchli bo'lishidadir. Emosional kechinmalarning kuchi turlicha bo'lishi mumkin. Hissiyotning qo'zg'alish xususiyatlari paydo bo'lish yo'lini kuchi va barqarorligi bir qancha sabablarga bog'liqdir. Hislarning ayni vaqtda naqadar tez kuchli va barqaror bo'lishiga ko'ra his-tuyg'ularning quyidagi turlari farqlanadi: emosiyalar, hissiy ton, affekt, stress, kayfiyat va boshqalar. O'quvchi shaxsning ijtimoiy rivojlanishi bu boshqalar bilan samarali muloqot qilishni o'rganish, muloqot, hamkorlik va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirib borishi. Zamon talabi darajasida o'z-o'zini anglash: shaxsiy o'sishga va ijtimoiy kontekstda o'zini aniqroq idrok yetishga yordam beradigan his-tuyg'ulari, ye'tiqodlari va qadriyatlarini anglashi lozim. O'quvchi shaxs empatiyasi esa boshqa odamlarga hamdard bo'lish, ularning his-tuyg'ulari va nuqtai nazarlarini tushunish qobiliyati. O'quvchi shaxs maktab ta'limida o'z-o'zini boshqarishini o'qituvchilar va ota-onalari tomonidan o'rgatilib boriladi. Shunday bo'lsada o'quvchi shaxs qiyin vaziyatlarda, kuchli salbiy hislarga ega bo'lganda o'z hisiyotlari impulslarini boshqara oladimi? Maktab ta'limi bilan bog'liq o'quv faoliyatining ta'siri qiyin vaziyatlarga ijtimoiy va madaniy me'yorlarga muvofiq munosabatda bo'lish qobiliyatini dars mashg'ulotlari jarayonlarida his qilib o'rganib borishi kerak bo'ladi. Psixologiyada hissiy intellekt tushunchasi (YeI) - bu o'zingizning va boshqalarning his-tuyg'ularini tanib olish, tushunish, tartibga solish va ulardan foydalanish qobiliyati – deb ta'kidlab o'tishadi. Odatda psixologik nazariyada ta'kidlangan hissiy intellektning bir nechta jihatlari yoki turlari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

O'z-o'zini anglash: Bu insonning his-tuyg'ularidan xabardor bo'lish, sabablari va oqibatlarini tushunish qobiliyatidir. Bunga o'zining kuchli va zaif tomonlarini bilish, shuningdek qaror qabul qilish jarayonida ushbu omillarni hisobga olish kiradi.

O'z-o'zini tartibga solish: o'quvchi shaxsning o'z his-tuyg'ularini boshqara olish qobiliyati, ayniqsa stressli yoki qiyin vaziyatlarda. Bunga impulsiv reaksiyalarga qarshi turish qobiliyati, shuningdek o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati kiradi.

O'quvchining o'quv faoliyatidagi motivatsiyasi. O'quv faoliyatida maqsadlarga erishish uchun his-tuyg'ularingizdan foydalanish qobiliyati. Bunga ichki motivatsiya, optimizm, imkoniyatlarni ko'rish va shunga qaramay ijobiy munosabatni saqlash qobiliyati kiradi. Ijtimoiy hissiy intellekt (Social Emotional Intelligence) turlari ham bir necha kabi konseptlarni o'z ichiga oladi. Ushbu intellektning asosiy jihatlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

## **Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish**

---

Shaxsiy hissiy intellekt: Bu, o'z his-tuyg'ularini to'g'ri anglash va ularni boshqarish qobiliyati. Bunda shaxs o'z hissiyotlarini tanish, ularga munosabat bildirish va u bilan boshqarish kiritiladi.

Ijtimoiy hissiy intellekt: Bu odamlarning his-tuyg'ularini tushunish va ular bilan samarali aloqa o'rnatish qobiliyati. Ijtimoiy empatiya, boshqalarning his-tuyg'ularini sezish va ular bilan ishlash ko'nikmalari ushbu turga kiradi.

Ijtimoiy guruhlarni aniq maqsadini bilishi, undagi har xil qatlamdagi shaxslar bilan birga yoki hamkorlikda ishlash qobiliyatini shakllantiradi. Ijtimoiy hissiy intellektning har bir turining inson hayotidagi ahamiyati katta, chunki ularning barchasi odamlarning o'zaro munosabatlari va umumiy yashash sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Ta'limda ijtimoiy-hissiy intellektni rivojlantirish — bu zamon talabi. U nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularni hayotga tayyor, mustaqil va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi. Shuning uchun ta'lim dasturlariga ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni tizimli ravishda kiritish va ularni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1 .В.Я.Мачнев,Е.И.Чердымова. СОЦИАЛЬНЫЙ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ. Монография. Самара Издательство Самарского университета 2022г.148 с.
2. Normurodova N., Azizova S. (2025). Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish yo'llari. – Boshlang'ich ta'limda emotsional intellektni shakllantirish usullari.
3. Shamshaddinova R. S. (2024). Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Ta'lim jarayonida emotsional intellekt pedagogik asoslari.
4. Abdullayev R. R. (2025). O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi emotsional munosabatlar: ta'lim samaradorligining psixologik asosi. – Ta'lim muhitida hissiy aloqalar va emotsional intellekt.
5. Karakulova U. A., Rejebbayeva A. Z. (2025). Hissiy intellektning o'quv jarayoniga ta'siri. – Emotsional intellekt va uning ta'lim jarayonidagi roli.
6. Nazokatxon R. (2024). Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlari. – Ijtimoiy yetuklik va ta'lim sifati bog'liqligi.